

**ZUKKO TANQIDSHUNOS**

**Abdulla Ulug‘ov,**  
*adabiyotshunos*

Aksariyat kishilar odamlar e‘tiborini tortishga, atrofidagilardan ko‘ra o‘zini aqlli, ustun ekanini ko‘rsatishga ishqiboz bo‘ladi. Bundaylar shu bois minbarlarga talpinadi, mikrofonni boshqalarga bergisi kelmaydi, majlis-mashvarat, yig‘ilishlarda oldingi qatorlarga joylashib olib, albatta, so‘z so‘rab, uzoq gapiradi va albatta, “Bu birinchi savol edi... Endi ikkinchi savol... Uchinchi savolim shundan iboratki...” deb ketma-ket savol beradi. Ular har bir yig‘inda bu qilg‘ini takrorlashi boshqalarning diqqatini oshirib, ranjitishi, ko‘pchilikka malol kelishini anglamaydi yoki buni bilsa ham ataylab, shunday qiladi. Ehtimol, ular ichida o‘zgalar diqqatini jalb etib, o‘ziga qaratish, o‘zining shu yerda ekanligini bildirish, boshqalardan ko‘ra bir pog‘ona baland qilib ko‘rsatish, hammani qoyil qilish istagi xuruj qilishiga chidayolmasdan shunday xunuk, ayanchli ahvolga tushadi. Bu toifadagilar barcha sohada, hamma jamoada, mahalla-ko‘y, tashkilot, muassasada bo‘lgani singari tilshunoslar, adabiyotshunoslar orasida ham topilib turadi va o‘zining takabburligi, manmanligi, janjalkashligi, dilozorligi bilan ko‘pchilikni g‘ashlantirib, ozor yetkazib yuradi. Qurdoş Qahramonov esa bundaylardan tamoman farqli holda, vazmin, bosiqliqi, doimo o‘ychanligi bilan e‘tiborni tortadi. Bu adabiyotshunos, pedagogni vazminlik, bosiqlikning o‘ziga xos namunasi desa bo‘ladi. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov bosiqlik, vazminlik bobida barcha uchun chinakam o‘rnak bo‘la olar edi. Qurdoş Qahramonovning yurish-turishi, davralarda o‘zini tutishida ana shu atoqli adabiyotshunosga xos bosiqlik, vazminlik ko‘zga tashlanadi. Uning xatti-harakati, boshqalarga muomala-munosabatida odamzodni azaldan azoblab kelgan kibrlanish, dimog‘dorlik sezilmaydi. U Matyoqub Qo‘shjonov, Baxtiyor Nazarov singari allomalarning hayot tarzi, muomala madaniyati, ilmiy-ijodiy faoliyati, odamlar bilan muomala-munosabatini o‘zi uchun andoza qilib olganga o‘xshaydi. Qurdoş Qahramonovning qiyofasi, yurish-turishi, o‘zini tutishi ham, adabiyotshunos sifatidagi ilmiy izlanishlari ham insondagi sokinlik, vazminlik, bosiqlik zamirida katta kuch-qudrat mujassamligini isbotlashga misol bo‘la oladi. Shoshqaloqlik, janjalkashlik, urishqoqlik, hovliqmalik, o‘jarlik, qaysarlik esa odamlar orasidagi muomala-munosabatda eng xunuk, g‘oyatda jirkanch, juda tuban hodisa ekanini hayotning o‘zi har birimizga har kuni, har soatda ko‘rsatib turadi.

Qurdoş Qahramonov ilmiy tadqiqotlaridagi teran mantiqqa asoslangan mulohazalar uning tabiatidagi tug‘ma bosiqlik, vazminlikdan suv ichadi. Olimning zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidchiligi to‘g‘risidagi tadqiqotlari hozirgi zamon

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘zbek adabiyotshunosligining muhim muvaffaqiyatlari sirasiga kiradi. Ularda akademik tadqiqotlarga xos eng yorqin jihatlar bo‘rtib ko‘rinib turadi. Nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi “Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli” deb nomlangani (1988), doktorlik dissertatsiyasi mavzusi “Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari” tarzida belgilangani (2012) Qurdoosh Qahramonov adabiyotshunoslik muammolariga zamon talablari darajasida akademik uslubda yondashadigan tanqidshunos tadqiqotchi ekanidan dalolat beradi. Adabiyotshunosning ilmiy faoliyati markazida zamonaviy adabiy jarayon va undagi adabiy tanqid turadi. Tadqiqotchining “Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti” (1991), “Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari” (2009) monografiyalari o‘quvchilarga adabiy tanqidning xususiyatlari va uning ahamiyati to‘g‘risida teran tasavvur beradi. Adabiy tanqid nima ekanligi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, maqsad va vazifalari nimadan iboratligi, adabiy tanqid kishilarning dunyoqarashi, didi darajasi, saviyasi o‘ssishi, adabiyot ravnaqiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini bilmoqchi bo‘lganlar olimning ushbu tadqiqotlari bilan tanishganida ko‘p narsani anglab yetadi. Olim mazkur tadqiqotlarida adabiy tanqidning xususiyat, sifatleri, uning adabiy jarayonga, kishilarning ong-tafakkuri, dunyoqarashiga ta’siri to‘g‘risida ehtirosga berilmasdan, o‘zining tabiatiga xos tug‘ma bosiqlik, vazminlik bilan mulohaza bildiradi, fikrini aniq, tiniq, tushunarli, ravshan tilda ifoda qiladi. Uning mulohazalari bir-birining uzviy davomi sifatida mantiqan mustahkam bog‘lanadi. Vazmin qadam tashlab, shoshilmasdan, osoyishta, sekin yuradigan, bosiqlik bilan salmoqlab ohista gapiradigan bu insonning “Vatan madhi talqinlari” (1989), “Bolalikka oshufta ko‘ngil” (2014) risolalari, “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi (1989)da yozganlari adabiy tanqidchilik to‘g‘risida ham shirali, shirin til bilan o‘qishli qilib, mulohaza yuritish mumkinligiga ibratli misol, chin namuna, asl andoza bo‘la oladi.

“Adabiy tanqid” deganda aksariyat odamlar biror asarning kamchilik, qusurlarini topib, shoir, adibni kamsitish, aybdor qilib ko‘rsatishni tushunadi. Bunday qarash ancha keng yoyilgani, albatta, “tanqid” so‘zi “asal”, “shakar”, “murabbo” singari shirin bir narsa emasligi, u salbiy ma’no-mazmunga ega tushuncha sifatida ong-tafakkurga singiganidan kelib chiqadi. Ushbu so‘zdagi ayni sifatni odamlarning tabiatida tomoshatalablik, janjalga o‘chlik hissi kuchli ekanligi yanada bo‘rttiradi. “Vatan madhi talqinlari”, “Bolalikka oshufta ko‘ngil” risolalari yoki ular muallifining “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligidagi mulohazalari adabiy tanqid taftish, ayblash maydoni, hukm chiqarish minbari yoki tomosha sahnasi emasligi, u tafakkurni oziqlantiradigan, didni o‘stiradigan muhim manba ekanidan xabar beradi.

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Shunday bo‘lishiga qaramay, adabiyot ixlosmandlari ham, boshqalar ham negadir Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Hamza yoki Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov asarlari to‘g‘risidagi bahs-munozarlarni, umuman, mashhur shaxslar nomi aralashgan mojaro, nizolarni bilishni, eshitishni, shu xususda gaplashishni yoqtirishadi. Kitobxonlarning aksariyati, kitob mutolaa qilmaydiganlarning esa hammasi badiiy asarlarning xususiyati, ahamiyati to‘g‘risida mulohaza bildirish, fikr almashishdan ko‘ra ijodkorlarning shaxsiy intim hayoti, oilaviy mojaro, nizolari, bir-biri bilan muomala-munosabati, kim kimni chaqib bergani, kim kimga tuhmat qilib, kasal qilib qo‘ygani, qamalishi, qatag‘on etilishiga sabab bo‘lgani, kim “agent” ekanligi to‘g‘risida suhbatlashib, bahslashishni xush ko‘radi. Ular she‘r, doston, hikoya, qissa, romanlarning fazilat, kamchilik, qusurlari yoritilgan maqola, monografiyalarga ko‘zi tushganda o‘zini go‘yo uy ichiga kirib qolib, chiqolmasdan derazaga urilgan qushdek his qiladi. Bunday ahvolga, ko‘p jihatdan aksariyat adabiy-tanqidiy taqriz, maqola, monografiyalar chiyratma jummalarda, sovuq, hissiz, quruq tilda yozilganligi ham sabab ekanidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Adabiy tanqidchilik tanasiga chirmovuqday o‘ralib, uning vujudini zuluk bo‘lib, so‘rib, shimib yotgan bu illatni afsuski, “akademik uslub” deb og‘zini ko‘pirtirib oqlaydigan, yoqlaydiganlar ham ko‘plab topiladi. Ana shundaylar “maydon”da javlon urib yurganligi tufayli falsafa, etika, estetika, tarix, pedagogika emas, balki tilshunoslik, adabiyotshunoslikka oid maqola, monografiyalarni mutolaa qilishdan yurak bezillaydi. Yurakni bezillatadigan har qanday narsa esa, o‘z-o‘zidan aniqki, o‘zidan odamlarni bezdiradi. Ravon, tushunarli tarzda bitilmagan narsalar, ular yuz-ikki yuz sahifali dissertatsiya bo‘ladimi, bir-o‘n betli taqriz, maqolami, bundan qat‘i nazar, soha rivojiga hissa bo‘lib qo‘shilmaydi. Aksincha o‘sha tarmoq, yo‘nalishni odamlar nazarida bebro‘, keraksiz, ahamiyatsiz bir narsa qilib qo‘yadi.

Qurdoş Qahramonov el-yurtga adabiyotshunos sifatida tanilgan boshqa hamkasblari singari maktabda o‘qigan o‘quvchilik yillarida ham, Toshkentda kechgan talabalik kezlarda ham, qishlog‘ida o‘qituvchi bo‘lib ishlagan paytida ham, Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida faoliyat olib borgan davrda ham, keyinchalik ham orzu-umidlarini adabiyot ilmi bilan bog‘ladi. Lekin eng muhimi, u tabiatidagi kamsuqumlik, kamtarlik, bosliqlik, vazminlikni aslo yo‘qotmadi. Ayrimlarga o‘xshab, hovliqmalik, betgachoparlik, boshqalarga bepisandlik bilan qarash, janjalkashlikni o‘ziga kasb qilib olmadi. Ustozlarga hurmat ko‘rsatishni hamisha joyiga qo‘ydi. Bir ko‘ylakni o‘zidan oldin to‘zg‘itganlarga “ustoz” deb qaradi. O‘zaro suhbat, muloqotlarda, tadqiqotlar mavzusi muhokamasida, dissertatsiyalar himoyasida, majlis-yig‘ilishlarda, albatta, o‘rtaga chiqib olib, uzoqdan-uzoq javrab, daholikka da’vo qilmadi. To‘rtta odam to‘plangan joyda boshqalarning gap-so‘ziga ters-teskari

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

fikr aytib, atrofdagilar diqqatini jalb etish, e’tiborini qaratishni beodoblik, kalondimog‘lik, izzattalablik qilish, bir so‘z bilan aytganda, ahmoqlik, deb bildi. Jamoadoshlari, tengdoshlari, yoshi o‘zidan kichkinalarni, shogirdlari, talabalarni qurdosh-davradoshi sifatida qadrladi.

Tabiatidagi vazminlik, bosiqlik, odamlar bilan muomala-munosabatidagi kamtarlik uning ko‘rinishi, qiyofasiga salobat berganidek, adabiyotshunos sifatidagi izlanishlariga ham ilmiy teranlik, mantiqiy mazmun baxsh etdi. Bu haqiqatga ishonch hosil qilish uchun olimning professor Nizomiddin Mahmudov bilan hamkorlikda yozilgan “O‘zbek hikoyachiligining taraqqiyot yo‘nalishlari” maqolasi bilan tanishib chiqish kifoya qiladi. Mazkur maqola: “XX asr o‘zbek adabiyoti yangi tipdagi adabiyotdir” deb boshlanadi (O‘zbek hikoyalari antologiyasi: (Tanlangan hikoyalar to‘plami). – Toshkent: “Sharq”, 1997. – 288 b. – 5-bet). Mualliflar mazkur maqola davomida o‘zbek hikoyachiligi manzarasiga e’tibor qaratish asosida o‘tgan asr o‘zbek adabiyoti ming yillik tarixga ega milliy adabiyotdan farqli yangi tipdagi adabiyot ekanini asoslab berishadi. Aytish mumkinki, “O‘zbek hikoyalari antologiyasi”da kirish so‘zi sifatida taqdim qilingan ushbu maqola XX asr o‘zbek qissachiligi, romanchiligi, dostonchiligi, dramaturgiyasi, qolaversa, adabiyotshunosligi taraqqiyoti xususiyatlarini yoritishda ham o‘ziga xos andoza bo‘la oladi. “O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti yo‘nalishlari” maqolasi ana shunday ahamiyat, salmoqqa, shunday teranlikka ega ekanligi zaminida esa mualliflardan biri Qurdosh Qahramonovning tabiatidagi vazminlik, bosiqlik, fe’l-atvoridagi sinchkovlik, zukkolik turadi.

Qurdosh Qahramonovning ko‘rinishi, qarashlari, yurish-turishi, xatti-harakatlari u doim o‘z ishi bilan ovunib yurishi, boshqalarning gap-so‘zi, yumushiga unchalik e’tibor bermasligidan dalolat qiladi. O‘ziga daxli, tegishli jihati bo‘lmagan narsalarga aralashmasligi esa bosiqlik, vazminlik “Vatan madhi talqinlari”, “Bolalikka oshufta ko‘ngil” risolalari muallifi uchun tug‘ma xususiyat ekaniga isbot bo‘la oladi.

“O‘zbek hikoyachiligi taraqqiyoti yo‘nalishlari”da uning “Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida aks etgan izlanishlariga xos teranlik ko‘rinadi. “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligidagi qarashlari, bayon qilgan mulohazalari esa olimning “Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari” mavzusida yoqlagan doktorlik dissertatsiyasiga asoslanadi. Shuning uchun u fikrlarini bamisoli g‘isht tergandek qilib, joy-joyiga qo‘yib, ifoda etadi.

Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarining nomlanishi Qurdosh Qahramonov “tanqidshunos” ekanini tasdiqlaydi. Mazkur tadqiqotlar u tanqidshunos olim ekanini isbotlaydigan o‘ziga xos sertifikat, diplom sanaladi. Yangi davr andozalariga mos o‘zbek adabiy tanqidchiligi esa o‘tgan yuz yil ichida o‘zini adabiyotshunoslikdagi

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

mustahkam yo‘nalish sifatida namoyon qildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning safdoshlari ham, Fitrat, Cho‘lponning tengqurlari ham, ulardan keyin maydonga chiqqan ijodkorlar ham adabiy tanqid muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ta’kidlashdi, uning o‘ziga xos sifat, xususiyatlarini ta’rif-tavsif etishdi. Chindan ham adabiy tanqid aruzga asoslangan she’riyatdan iborat, ming yillik tarixga ega eski adabiyotdan tamoman farq qiladigan, zamona talabiga javob beradigan, jahon, xususan, Yevropa adabiyoti mezonlariga mos keladigan yangi o‘zbek adabiyoti yuzaga kelishi, ravnaq topishi, odamlarning ongi, adabiyotga qarashida inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga samarali ta’sir ko‘rsatdi.

XX – XXI asrda adabiy tanqidchilarning bir necha avlodi yetishib chiqdi. Adabiy tanqidchilik, aytish mumkinki, xuddi o‘qituvchilik, shifokorlik singari kasbga aylandi. Ijtimoiy turmushda “munaqqid” degan yangi kasb paydo bo‘ldi. Zukko, iqtidorli, mehnatsevar munaqqidlar xuddi iste’dodli shoir, adib, dramaturglar singari elning hurmat-e’tiborini qozondi. Ularning faoliyati jamiyatda e’zoz, qadr topdi, mehnati nufuzli davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G‘afurov singari munaqqidlar xalqning, hukumatning ardog‘ida bo‘ldi. Ular o‘z izlanishlari bilan adabiy tanqid badiiy asarlar bag‘ridagi boshqalar ko‘ra olmaydigan ma’no va mohiyatni ochib ko‘rsatishini namoyon qilishdi. Matyoqub Qo‘shjonovning “Abdulla Qodiriyning tasvirlash san’ati”, “Oybek mahorati” singari kitoblari, Ozod Sharafiddinovning Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga bag‘ishlangan “Iste’dod jilolari” adabiy portreti, boshqa munaqqidlarning maqola, taqrizlari bir necha avlod qalbiga adabiyotga mehr-muhabbat hissi olib kirib, ularning ong-tafakkuri, hayotga qarashi sog‘lom asosda shaklanishiga qanchalik salmoqli ta’sir ko‘rsatganini odamzod aqli o‘ylab topgan hech bir mezon bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

O‘z-o‘zidan ayonki, bironing ishi, faoliyatiga baho berish, fe’l-atvorini tavsiflash kishi zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklaydi. Demak, munaqqid ham shoirning she’r, dostoni, yozuvchining hikoya, qissa, romani to‘g‘risida fikr bildirar ekan, yelkasiga zil-zambil “yuk”ni ortmoqlab oladi. Shunday ekan, uning mulohazalari, chiqargan xulosalarini taftish etib, muayyan fikrni taqdim qilish qanchalik qiyin, mashaqqat ekani xususida o‘ylab ko‘rilsa, adabiy tanqid jo‘n hodisa emasligi, munaqqidlarning faoliyati, izlanishi, jamiyat ma’naviyat va ma’rifati manzarasini belgilash, kishilarning badiiy-estetik did, saviyasini o‘stirish, ularning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga munosabatini yuksaltirishdagi ulushi, hissasi salmoqli ekani o‘z-o‘zidan oydinlashadi. Afsuski buni qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Vaholanki, barcha zamonda adabiyot chinakam so‘z san’atiga

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

aylanishi, u ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy ta’sir kuchi kasb etishida adabiy tanqid muhim o‘rin tutadi.

Ozod Sharafiddinov “Tanqidchilik kasbi haqida” maqolasida: “Men yigirma yildan beri tanqidchilik bilan shug‘ullanaman. Shu yillar mobaynida ko‘pgina kitob o‘qidim, necha yuzlab tanqidiy maqolalarni ko‘zdan kechirdim, qanchadan-qancha tanqidchilar bilan tanishdim, suhbatlashdim, adabiy tanqidchiligimizning o‘sinh jarayonini muttasil kuzatib bordim. Shuning oqibatida, men uchun bir haqiqat ayon bo‘ldi – bugun uning haqiqat ekaniga astoydil ishonaman. Bu haqiqat shundan iboratki, tanqidchi bo‘lish uchun, albatta, iste’dod kerak, shoir, dramaturg yoxud nosir bo‘lish uchun iste’dod, talant qanchalik zurrur bo‘lsa, tanqidchi bo‘lish uchun ham u shunchalik zurrur” deb ta’kidlagan (Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 640 b. – 632-bet). O‘zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos mazkur maqolasini 1976-yilda yozgan. U o‘shanda salkam ellik yoshda bo‘lgan. Bu yoshda esa har bir kishi boshidan ko‘p voqea-hodisani kechirib, turmushdan kattagina tajriba orttirib oladi. Eng muhimi, u o‘zi shug‘ullanayotgan sohaning sir-sinoatlarini puxta egallashga erishadi, kasbiga astoydil mehr qo‘yib, butun borlig‘i bilan unga bog‘lanib qoladi. Izzat Sulton, Matyoqub Qo‘shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Norboy Xudoyberganov, Ibrohim G‘afurov adabiy tanqidchilikka shunday berilib, unga sadoqat ko‘rsatib, shijoat bilan xizmat qilib, hayot kechirdi. “Ijodni anglash baxti” kitobi muallifi mazkur maqolasi markaziga “Tanqidchilik talanti nima degani ?” degan savolni qo‘yadi va “Tanqidchilik talanti uch unsurdan tashkil topadi. Bularning birinchisi – adabiyotdagi go‘zallikni, g‘oyaviy va badiiy boylikni his qila bilishdir... Tanqidchilik talantining tarkibiga kiruvchi yana bir unsur fikrlash qobiliyatidir... Nihoyat, tanqidchilik talantining uchinchi unsuri sifatida so‘z san‘atiga nisbatan ehtirosli, otashin muhabbatni aytish mumkin” deb javob beradi. U ushbu unsurlarning har birini muxtasar ta’rif-tavsif qilib, ularning sifat, xususiyatlari va ahamiyatini asoslab bergan.

“Bolalar adabiyotida realistik prinsiplarning shakllanishida adabiy tanqidning roli”, “Istiqlol davri o‘zbek tanqidchiligi metodologiyasining yangilanish tamoyillari” dissertatsiyalari va ular asosida chop qilingan monografiya, maqolalar Qurdoş Qahramonov munaqqid emas, tanqidshunos sifatida ish tutgani, izlanish olib borganini namoyon qiladi. Ularda bayon qilingan mantiqiy mulohazalar, muammoga yondashuvlar, o‘rtaga tashlangan masalalar, ular xususida ilgari surilgan qarashlar va taqdim qilingan xulosalar olimning O‘zFA Til va adabiyot institutidagi faoliyat besamar kechmagi, shirin mevalar berganiga isbot bo‘ladi. Tanqidshunos ayni tadqiqotlarida adabiy jarayonni sinchkovlik bilan kuzatib borgan, undagi yangilanish, o‘zgarishlarni zukkolik bilan ko‘ra bilgani, ularning sabablari,

## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

mohiyatini anglashga intilgani, fahm-farosati o‘tkirligini ko‘rsatib beradi. U adabiy tanqidchilik manzarasini mavjud muhit, undagi ijtimoiy o‘zgarishlardan kelib chiqib, tahlil qiladi, munaqqidlarning mulohazalari, qarashlarini hayot hodisalari bilan taqqoslaydi. Tanqidshunos maqolalari, monografiyalarining ayni o‘rinlari uning fikrlash doirasi kengligi, mulohazalari teran mantiqqa asoslanishini namoyon etadi. Munaqqidning muayyan asar yoki adabiy jarayon to‘g‘risidagi mulohazalarini ma’qullash yoki inkor etish uchun esa tadqiqotchi chuqur bilim, mustahkam mantiqiy tafakkurga asoslanishi kerak. Bunday asosga ega bo‘lish uchun esa, o‘z-o‘zidan aniqki, tanqidshunos adabiy jarayonni puxta bilishi, badiiy asarlarni, munaqqidlarning ular xususida yozganlarini muntazam o‘qib, tanishib borishi zarur. U bu bilan kifoyalanib qolmasdan, tanqidchilarning asarlar to‘g‘risidagi fikrini taqqoslab, kerakli xulosalar chiqara bilishi lozim. Buning uchun tanqidshunos mehnatsevar, zukko va albatta, alohida qobiliyatga ega bo‘lishi shartligi qayd qilinmasa ham buni barcha biladi. Yetmish yoshini qarshilayotgan Qurdoş Qahramonov erishgan natijalar unda shu fazilatlar mavjudligini ko‘z-ko‘z qiladi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun yana “O‘zbek hikoyachiligining taraqqiyot yo‘nalishlari”ga murojaat etiladi. Unda, jumladan, o‘zbek hikoyachiligi namoyandalari ijodi quyidagi tarzda tavsif etiladi: “.....voqelikni kengroq hayotiy timsollar, birinchi galda, xarakterlar orqali ifodalash, eng muhimi, yangicha konsepsiyani bayon etish ehtiyoji nasriy asarlar yaratishga turtki bo‘ldi. Shu ehtiyoj tufayli asrimiz boshlarida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ko‘plab jadid adabiyoti naoyandalarining realistik asarlari yaratila boshlandi. Xususan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat”, “Uchrashuv”, Abdulla Qodiriyning “Juvonboz”, “Uloqda”, Cho‘lponning “Qurboni jaholat” (“Jaholat qurboni”), “Do‘xtur Muhammadiyor” kabi hikoyalari shu jihati bilan xarakterlidir. Shubhasiz, bu asarlarning barchasi ham bu yo‘nalishdagi ilk asarlar sifatida birdek badiiy mukammallikdan ko‘ra targ‘ibotchilik xususiyati ustunlik qiladi... Asrimiz boshlarida shakllana boshlangan o‘zbek nasrchiligi dastlab hikoya janrida o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘ra boshlagan. Bu hikoyalarning asosiy mavzusi shu davrdagi she‘riyat yoki dramaturgiyadagi singari, eng avvalo, jadidchilik g‘oyalarini ifoda etishga qaratilgan. Jaholatga ilm-ma‘rifatni qarama-qarshi qo‘yishi bu asarlarning asosiy xususiyatidir. Hatto, Abdulla Qodiriyning chinakam badiiy mukammaligi adabiyotshunoslikda tan olingan “Uloqda” hikoyasida ham ana shu targ‘ibotchilik sezilib turadi. Ta’kidlash zarurki, “uloqda” hikoyasi realistik asardir. Unda targ‘ibot-tashviqot emas, tasvirlash san’ati yetakchilik qiladi... Abdulla Qodiriyning “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” turkum hikoyalari

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘zbek hajviy hikoyachiligida yangi yo‘nalishni boshlab berdi. Bu hikoyalarning asosida fosh qiluvchi kulgu yotadi. Yozuvchi asar qahramonlarining satirik qiyofasini yaratar ekan, o‘zi ta’kidlaganidek, asosiy e’tiborni “xarakter kulgusi”ga qaratadi. Yozuvchi bu asarlarida voqelikni asar qahramonlari tilidan tasvir etishi bilan ularning o‘zlarini o‘zlari fosh etishlariga keng imkoniyat yaratadi va shu orqali kulguli holatlarni vujudga keltiradi. Bu qahramonlar o‘zlarini fosh etish barobarida, “bilib-bilmay” jamiyatdagi illatlarni ham fosh etadilar...”. O‘z-o‘zidan ayonki, bunday aniq “tashxis”, birinchida, o‘zbek hikoyachiligi manzarasi to‘g‘risida yetarlicha tasavvur uyg‘otadi. Ikkinchidan, u o‘tgan asr o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodidagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Eng muhimi, ayni “tashxis” “O‘zbek hikoyachiligining taraqqiyot yo‘nalishlari” maqolasi mualliflari zukko, sinchkov, teran fikrlaydigan mutaxassis ekanini namoyon qiladi.

“O‘zbek hikoyachiligining taraqqiyot yo‘nalishlari”da 20 – 30-yillar, keyingi davrlar hikoyachiligi xususiyatlari shu tarzda ko‘rsatib beriladi. Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor va boshqa adiblar hikoyalarining o‘ziga xos jihatlari nimalarda aks etishiga e’tibor qaratiladi. Birgina she‘r, birgina hikoya ham ijodkorning iste’dodi, mahorati darajasi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘la olishi gohida quloqqa chalinib qoladi. Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Anor”i, G‘afur G‘ulomning “Vaqt”, “Sog‘inish”, “Sen yetim emassan”i, Hamid Olimjonning “O‘rik gullaganda”, “O‘zbekiston”i, Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”, “Bahor”i shunday salmoqqa ega ekani aytiladi. Adabiyot va san’atda mana shunday qonuniyat mavjudligiga “O‘zbek hikoyachiligining taraqqiyoti yo‘nalishlari” ham isbot bo‘la oladi. Chunki mazkur maqoladagi mulohazalar, qarashlar mualliflarning adabiy hodisalarni umumlashtirib, tahlil etish, ularga xos sifat, xususiyatlarni sinchkovlik bilan ko‘rsatgan holda, teran mazmunga ega xulosalar taqdim qilish darajasi balandligiga aniq-tiniq isbot bo‘la oladi.

Odamlar bir-biridan bo‘y-basti, yuz-ko‘zi, ovozi va boshqa jihatlariga ko‘ra farq qiladi. Ular orasida kishining qadam tashlashi, yurishi, ya’ni “poxodka”si va, albatta, ko‘z qarashi, nigoh alohida ajralib turadi. Zukko tanqidshunos Qurdoş Qahramonovning “poxodka”si allanimalardan tashvishlanib, o‘yga tolgancha horg‘in qadamlar tashlab, uyiga, oilasi bag‘riga qaytayotgan odamlarnikiga o‘xshaydi. Bunday kishilar esa odatda, kamgap, bosiq, vazmin bo‘ladi. Tabiatan shunday yaratilgan bunday odamlar o‘zining shoshqaloqlikdan xoli yurish-turishi, xatti-harakati, ayniqsa, og‘ir, horg‘in qadam tashlashi bilan e’tiborni tortadi. Ular o‘zlariga qandaydir narsa-hodisa, biror fikr ma’qul bo‘lib qolsa, tasdiq ma’nosida jilmayib qo‘yishadi. Ya’ni munosabatini shu tarzda izhor qilish bilan kifoyalanishni ma’qul ko‘rishadi. Zukko tanqidshunos Qurdoş Qahramonov o‘zining ham ana shu



## **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

kamsuqum ko‘rinishi, qiyofasi, ham da’vo, dastaklardan xoli kamtarona ijodiy izlanishlari bilan zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining ko‘rkam manzarasining ajralmas qismiga aylanib, unga ko‘rk bag‘ishlab turadi. Ko‘rinishidan u xuddi shu joyning o‘zidan o‘tib chiqqanga o‘xshab ketadi.